



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛІКСІЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛИК СТАТУС БЕРІЛГЕН КҮН

МАЗМУН ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Fozilov O. O'zbek va ingliz tillarida hosila nominalining motivatsion asoslari (perefrazalar misolida).

Aliyeva Z. Ornitonim komponentli ingliz va o'zbek idiomalarining tahlili

Alimova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida pora va ta'magirlik konseptlarining lingvomadaniy va semantik talqini

Aliyeva Z. Ingliz va o'zbek tilida ornitonim komponentlari bo'lgan frazeologik birliklar haqida ilmiy qarashlar.

Eshquvvatova G. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifi food/taom komponentli frazeologik birliklari misolida.

Марданов А. Основные понятия логико-семантических моделей

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Maxmudova M. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariyasi

Jabborov M. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning shakl va metodlari.

Mahkamova Sh. Innovatsion texnologiyalar asosida musiqa san'ati boshqaruvi

Xo'jamqulov P, Musayev N, Muminova D. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari.

Qayumov J. O'quvchilarga xonandalik asarlarini erkin va ifodali kuylatish uslublari.

Musayev N, Xo'jamqulov P, O'zbek milliy maqom san'atini yosh ijrochilarga o'rgatishda etibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar.

Rajabova S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda Marvelous Designer dasturidan foydalanish metodikasi

Yunusov O. Musiqa ta'limida qo'shiq kuylash ijodiy faoliyatga o'rgatish

Umarov A. Pedagogik-kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida.

Eshankulova D. Umumta'lim maktablarida kimyo fanining o'qitilishi va zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilish uslublari.

Yadgarova D. Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

Lafasov B Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda "steam – ta'lim".

Mo'minov K. Forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv

Qulmatov Z. Pedagogik tadqiqotlarda ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi

Umirova G. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida rahbarlik qobiliyati va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy qismlari

Axmedova M. Mustaqil va o'quv topshiriqlarini metodik takomillashtirishda ona tili fanining vazifalari

Qosimov Sh. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish

Xayitova Sh. Oilada o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik omillari

Xoliqova R. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini metodik-pragmatik takomillashtirish

Muxitdinova M. Syomkina A, Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari

Maxkamova M. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

Muslimov Sh. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari

Xaydarova M. Ta'lim qonunlari - uni samarali tashkil etish bu ba'zi muhim talablar uchun asosdir.

сторон и связей (законов), свойственных предметам, взятых в их естественной взаимосвязи, в жизни, в отличие от процесса или явления, которое есть обнаружение сущности через свойства и отношения. This article analyzes logical-semantic models of the subject area.

REZYUME

Ko'pgina kontseptual ma'lumotlar modellari ob'ekt, ob'ekt, xususiyat, munosabat, operatsiya va cheklashning asosiy tushunchalarini qo'llab-quvvatlaydi. Ob'ekt tushunchasi muayyan ob'ekt, jarayon yoki hodisa bilan bog'liq bo'lgan tushuncha sifatida qaraladi. Mohiyat - bu xususiyat va munosabatlar orqali mohiyatning ochilishi bo'lgan jarayon yoki hodisadan farqli o'laroq, hayotda, ularning tabiiy munosabatlarida olingan ob'ektlarga xos bo'lgan barcha tomonlari va aloqalari (qonunlari) yig'indisini ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi. Ushbu maqolada mavzu sohasining mantiqiy-semantik modellari tahlil qilinadi.

SUMMARY

Most conceptual data models support the basic concepts of entity, object, property, relation, operation, and constraint. The concept of an object is considered as a concept associated with a specific object, process or phenomenon. Essence is considered as a concept that denotes the totality of all aspects and connections (laws) characteristic of objects, taken in their natural relationship, in life, in contrast to a process or phenomenon, which is the discovery of essence through properties and relationships. This article analyzes logical-semantic models of the subject area.

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA NAZARIYASI

Maxmudova M.M.

**SamDCHTI "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi" kafedrası professori.
p.f.d**

Tayanch so'zlar: "Onalar maktabi", ta'lim jarayoni, ilmiy tadqiqotlar, universal qonun, idrok qilish, intellekt, didaktik talablar, uyin, ona tili, oila tarbiyasi, sxolastik metodlar.

Ключевые слова: «Материнская школа», образовательный процесс, научные исследования, всеобщий закон, восприятие, интеллект, дидактические требования, дом, родной язык, семейное воспитание, схоластические методы.

Key words: "Mother's School", educational process, scientific research, universal law, perception, intellect, didactic requirements, home, mother tongue, family upbringing, scholastic methods.

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) o'z vatani Chexiya nemis feodallari tomonidan og'ir milliy zulm ostida bo'lgan va xalqi o'z ozodligi uchun kurashga o'tlangan bir davrda yashadi. Vujudga kelgan milliy-ozodlik harakati diniy talablarni ilgari surgan bo'lsa-da, lekin aslida bu mehnatkash halqning zolimlarga qarshi noroziligi edi: mehnatkash omma asosan nemislardan kelib chiqqan dvoryan katolik ruhoniylari tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinardi.

Komenskiy Chex qardoshlar jamoasiga mansub bo'lgan tegirmonchi oilasida tug'ildi. Bu diniy jamoa bo'lib, Chexiya aholisining anchagina qismini birlashtirgan edi. Jamoa a'zolari mehnat bilan shug'ullanardi, bir -birlariga yordam ko'rsatardi, bolalar tarbiyasi haqida birgalikda g'amxo'rlik qildirdi, ular uchun maktablar ochardi.

Ota-onasidan erta judo bo'lgach, Komenskiy jamoa g'amho'rligi tufayli universitet ta'limini oldi. U juda bilimdon odamdirdi. O'qishni tamomlagandan keyin Fulneke shahridagi qardoshlik maktabiga o'qituvchi qilib tayinlanadi, keyinchalik chex qardoshlari mahalliy jamoasining targ'ibotchisi va rahbarlaridan biriga aylandi. Komenskiy vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan har tomonlama ish olib bordi. U chex tilining xususiyatlarini o'rgandi, xalq og'zaki ijodi asarlarini yig'di, o'z mamlakatining geografiyasi bilan shug'ullandi. Xalqqa bilim berish

to'g'risida g'amxo'rlik qilib, fanni xalqni qarashlari bilan birlashtirishga harakat qildi, shuningdek, qardoshlik maktablaridagi o'qitish mazmuni va metodlarini takomillashtirdi.

Komenskiyning tinch hayoti O'ttiz yillik urush (1618-1648) bilan to'xtab qoldi. Bu urush davomida Chexiya davlat mustaqilligini yo'qotdi va Gabsburglar imperiyasiga kiritildi. Nemis feodallari va Vatikan malaylari mamlakatni vayron qildilar va halqqa jabr o'tkazdilar, Chex qardoshlarni qattiq ta'qib etdilar.

Shu vaqtda Komenskiy oilasi vabodan halok bo'ldi, u butun mol-mulki, kitoblari va qo'lyozmalaridan ajradi. 1628 yili Chex qardoshlardan katolik diniga o'tish yoki vatanni tashlab ketishni talab etilganida 30 ming kishi ularga boshpana bergan Pol'shadagi Leshno shahriga ko'chib kelib o'rnamshdi. Komenskiy yana qardoshlik maktabida o'qituvchi bo'ldi va bu yerda unga olamshumul shuhrat keltirgan "Buyuk didaktika" va "Onalar maktabi" kabi asarlarini nashr qildi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida Komenskiy-ning bilimlarini demokratlashtirish sohasidagi ilmiy ishlari hamda tabiat va jamiyat haqida barcha kishilarga tushunarli bo'lgan bilimlar entsiklopediyasi – "Pansofiya" yaratishga urinishlar ma'lum bo'ldi.

1641 yilda Angliya parlamenti (o'sha vaqtda u feodal va katolik reaksiyasiga qarshi kurashayotgan edi) Komenskiyni ingliz olimlari bilan shu yo'nalishda birgalikda ishlash uchun Londonga taklif qildi. Uning Londonga borishi tantanali yurishga aylandi – bu chex pedagogi, tarbiya sozasidagi yangi g'oya va reformalar jarchisining obro'-e'tibori balandligidan dalolat berar edi. Shuningdek, uni maktab reformalari o'tkazish uchun, Shvetsiya va Vengriyaga ham taklif qildilar.

Komenskiy ilmiy tadqiqotlarni davom ettirdi, keng ommaga ma'lum bo'lgan "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" darsligini yozdi "Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahatlar" degan katta asarni yozishga kirishdi. Polshaga qaytib kelgandan keyin Komenskiy tez orada yana bir mol – mulkidan ajraldi. Polsha – Shvetsiya urushi vaqtida Leshno butunlay yondirib yuborildi. Olimning kutubxonasi va uning bebaho qo'lyozmalari yo'q bo'lib ketdi. Komenskiy 1670 yilda Amsterdamda vafot etdi. Uning butun hayoti, o'z ining so'zlariga ko'ra "vatanida emas, balki umrbod tinimsizlik va darbadarlikda o'tdi", vatanini qizg'in sevish va yosh avlodni tarbiyalash ishiga sodiq xizmat qilish namunasi bo'lib qoldi.

Tarbiyaning roli, uning maqsad va vazifalari to'g'risida. Komenskiyning bolaga, uning rivojlanishi va tarbiyasiga bo'lgan qarashlari, o'rta asr tasavvurlaridan tubdan farq qilar edi. Komenskiy insonning o'zni benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina "Har qanday boladan haqiqiy insonni tarbilash mumkin", barcha bolalarga agar pedagogik jihatdan to'g'ri yondashilsa, yuqori ahloqli va ma'lumotli bo'lib yetishishlari mumkin deb ta'kidlaydi.

Garchi Komenskiy yerdagi hayot "faqat" boqiy hayotga tayyorlanishdan iborat deb hisoblab, xudoga ishonuvchi xristianni tarbiyalashga harakat qilgan bo'lsa ham, uning yangi zamonning tegishli progressiv talablariga mos bo'lgan ideali "bilish, harakat qilish va gapirishga" qodir bo'lgan kishilardir. Shuning uchun bolalardagi barcha jismoniy va ma'naviy kuchlarni ilk yoshlik davridan boshlab rejali ravishda rivojlantirish, doimo ularning takomillashishiga ko'maklashish kerak, deb hisobladi.

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lish printsipli. Komenskiyning fikriga ko'ra, to'g'ri tarbiya tabiatga uyg'un bo'lishi kerak. O'sha vaqtda keng tarqalgan o'qitishning sxolastik metodlariga qarshi kurashib, buyuk pedagog "barchani xamma narsaga o'rgatish" san'atiga, tabiat ko'rsatmalariga asoslanishga, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishga chaqirgan edi.

Uyg'onish davrida qaror topgan insonga bo'lgan qarashlarga amal qilib, Komenskiy insonni tabiatning bir qismi deb hisobladi va tabiatdagi hamma narsa, insonni ham qo'shganda, yagona va universal qonunlarga bo'ysunadi deb aytdi.

Lekin shuni nazarda tutish kerakki, Komenskiyning tabiat va kishilar faoliyatiga tez- tez murojaat qilishi o'z pedagogik qoidalarining to'g'riligini tasdiqlash uchun o'z iga xos usul edi, xolos. Bunday misollar unga o'z ining shaxsiy, boy pedagogik tajribasini va zamonaviy ilg'or tajribalarini asoslashga yordam berar edi. Komenskiy ta'lim jarayoni tabiatiga chuqur kirib bordi. Bolalar psixikasi bilan hisoblashmagan sxolastik maktabga qarama – qarshi o'laroq u

o'qitishni kishining rivojlanish qonunlarini bilish asosiga qurishga harakat qildi. Komenskiyning o'zi insonni tabiatning bir qismi deb bildi.

Komenskiyning fikricha, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta'limgina tabiatga uyg'un bo'ladi. "Biz, -degan edi u -hamma joyda tabiat ketidan borishga qaror qildik, u birin -ketin o'z kuchlarini ma'lum qilgandek, biz ham aqliy qobiliyatlarning izchil rivojlanish tartibini kuzatib borishimiz kerak".

Biroq Komenskiyning tarbiyaning tabiatga uyg'unligi printsiplarini tushunishi tarixiy cheklangan edi: o'sha vaqtda u ijtimoiy mavjudot sifatida inson kamolotining o'ziga xosligini tushuna olmas va xato qilib, bu kamolot faqat tabiiy qonunlar bilan belgilanadi, deb hisoblar edi.

Umumiy ta'lim. Hamma bolalar bilimlarni idrok qilishga qodir deb hisoblab, Komenskiy "barchani hamma narsaga o'rgatish"ni istar edi. U ta'limning umumiylikini talab qildi. Bu ta'lim boylarga ham, kambag'allarga ham, bolalarga ham, qizlarga ham taalluqli bo'lishi, ya'ni hamma "hunarmandlar, dehqonlar, hammollar va xotin -qizlargacha" ma'lumot olishi lozim deydi. Har ikki jinsdagilarga ham xalq ommasining manfaatlariga javob beruvchi ilg'or, demokratik talabni qo'ydi.

Komenskiy maktab bolalariga har tomonlama ma'lumot berish kerak, bu ularning aql-idroki, axloqi, his - tuyg'ulari va irodasini rivojlantirishi lozim, deb hisobladi. Inson zakovatining kuchiga ishongan holda u "o'quvchilarning aql-idroki donolik shu'lalari bilan nur sochib turadigan kishilarning chinakam ustaxonasi" bo'la oladigan maktab haqida orzu qildi. Komenskiy o'qitish jarayoni bolalarga tushunarli bo'lmagan, diniy matnlarni quruq yodlashdan iborat bo'lgan maktablarni qattiq qoraladi, ularni "o'g'il bolalar uchun qo'riqchi va aqlli kishilar uchun zindon" - deb atadi hamda ularni tubdan o'zgartirishni talab etdi.

Maktablar tizimi. Ta'limning mazmuni. Demokrit, Komenskiy yosh avlodni har tomonlama tarbiya berilishini ta'minlash kerak bo'lgan, hamma bosqichlarda izchillik va o'zaro bog'lanish bo'ladigan qat'iy va yagona maktablar tizimi qaror topishi haqida orzu qildi.

Komenskiy hamma bosqichlar uchun (akademiyadan tashqari) ta'limning mazmunini batafsil ishlab chiqdi. U har bir predmetning o'qitilishini "eng oddiy elementlardan boshlash kerak, bolalarning bilimi bosqichdan - bosqichga o'tgan sayin yildan - yilga yangi ildiz otib va novda chiqarib, tobora mustahkamlanib, o'sib borayotgan va ko'p hosil berayotgan daraxt singari kengayib va chuqurlashib borishi lozim", - deb hisobladi.

O'qitish hamon lotin tilida olib borilayotgan o'sha davrda Komenskiyning boshlang'ich maktabni ona tili maktabiga aylantirish haqidagi talabi juda progressiv talab edi. Bunda buyuk pedagog fanni oddiy xalq ham o'rganishi mumkin bo'ladigan demokratik orzuga amal qildi. Komenskiy boshlang'ich maktabda bolalar erkin o'qishni va yozishni bilib olishlari, arifmetika va geografiyaning ba'zi elementlari bilan tanishishlari, geografiya va tabiatshunoslikka doir oddiy bilimlarni egallashlari kerak deb hisobladi. Garchi Komenskiy o'zi ishlab chiqqan ona tili dasturida diniy ta'limga katta o'rin bergan bo'lsa ham, u shubhasiz boshlang'ich barcha umumiy hunar usullari bilan tanishishlari kerak, degan fikrlari ham juda qimmatlidir.

Komenskiy o'zi uchun zamonaviy bo'lgan o'rta maktab beradigan bilimlar doirasini ham ancha kengaytirdi. Lotin tili va "etti erkin fanlar"ni saqlagan holda Komenskiy gimnaziya kursiga fizika (tabiatshunoslik), geografiya va tarixni kiritdi. Shu bilan birga u o'rta maktabda odat bo'lib qolgan fanlarni o'qitish tartibini o'zgartirishni taklif qildi. Til (grammatika)ni o'rgangandan keyin u fizika va matematikaga o'tish, ritorika va dialektika mashg'ulotlarini esa yuqori sinflarga o'tkazish maqsadga muvofiq, ya'ni o'quvchilar real bilim olganlaridan keyingina ularning nutqi va tafakkurini rivojlantirish bilan shug'ullanish lozim deb hisobladi. "Xullas o'qish va o'rganishni buyumlar bilan qo'shib olib borish kerak",- deb yozgan edi Komenskiy.

Didaktik talablar. "Barchani xamma narsaga o'rgatishdek umumiy san'at" yaratishni, o'zi uchun zamonaviy bo'lgan maktabni o'zgartirishni maqsad qilib olgan Komenskiy yangi didaktik talablarni ilgari surdi. Bu talablar pedagogik fikr va maktab tajribalarini yanada rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega edi. Materialistik faylasufiya qonuniyatlariga tayanib, Komenskiy "avval sezgilarda bo'lmagan narsa intellektda ham bo'lmaydi", deb ta'kidladi. Shundan kelib

chiqib, hissiy tajribani bilish va o'rganish asosiga qo'ydi hamda ko'rsatmalilik printsiplarini asoslab berdi va batafsil yoritdi.

O'qishda ko'rsatmalilik haqida Komenskiyga yashagan mutafakkirlar, masalan Uyg'onish davrining mutafakkirlari ham gapirganlar, lekin Komenskiy ulardan farqli o'laroq ko'rsatmalilikni faqat buyum va hodisalarni ko'rib idrok qilish emas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda idrok qilish, deb tushunadigan bo'ldi. Buyuk Chex pedagogi didaktikaning olti qoidasini belgilab berdi. Unga muvofiq:

1. "Sezgilar bilan idrok qilish mumkin bo'lgan hamma narsani sezgilar orqali idrok qildirish, ya'ni: ko'rib bo'ladigan narsani ko'z vositasi bilan, eshitib bo'ladigan narsani quloq vositasi bilan; hidlarni- hidlatish, ta'mni totib ko'rish, ushlab ko'rish sezilishi mumkin bo'lgan narsalarni ushlatib ko'rish vositasi bilan idrok qildirish kerak. Agar biror bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yo'la bir necha sezgi organlarini ishga solish" lozim. Ko'rsatmalilik printsiplarini bolalar bilan bevosita tanishtirish yo'li bilan amalga oshirish darkor. Odamlar "o'z donoligini kitoblardan emas, balki yer va osmonni, eman va shamolni idrok qilishdan olishi" kerak; agar biror bir sababga ko'ra uning iloji bo'lmasa, predmetlarni tasvirlovchi suratlarga yoki ularning modellariga murojaat qilish lozim, deb yozgan edi Komenskiy.

2. Komenskiy o'quvchilarda o'qishga qiziqish va e'tibor borligini ularni materiallarni o'z lashtirish uchun zaruriy shart deb hisobladi. U barcha vositalar bilan o'quvchilarda bilim olish ishtiyoqi uyg'otishni taklif etdi va shu masala yuzasidan konkret ko'rsatmalar berdi: o'quvchilarga o'rganayotgan narsalarning ahamiyatini, ularning egallagan bilimlari kelgusida nafi tegishini tushuntirish lozim, bolalarni qiziquvchanligini rag'batlantirish, o'qishni o'quvchilar uchun yengillashtirish, qiziqarli bo'lishiga harakat qilish darkorligini qayd etdi.

3. Bilimlar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun Komenskiy ta'limda oddiydan murakkabga, aniq narsalardan mavhum narsalarga, faktlardan xulosalar chiqarishga, osondan qiyin narsalarga borishni, yaqindagi narsalardan uzoqdagilarga o'tishni taklif qildi. U qoidalaridan oldin misollar keltirishni maslahat berdi.

4. Komenskiy birinchi martaba mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi zarurligini asoslab berdi, bunga muvofiq, bir o'qituvchi bir yo'la butun sinf bilan muayyan o'quv materiali bo'yicha ishlaydi. Komenskiyning fikriga ko'ra o'quv yili hamma o'quvchilar bilan bir vaqtda boshlanib, bir vaqtda tugallanishi, mashg'ulotlar ketma-ket dam olish bilan almashinib turishi kerak. O'quv kuni turli sinflarda o'quvchilarning yosh imkoniyat-lariga muvofiq ravishda qat'iy tartibga solinishi zarur.

5. O'qituvchilarga nisbatan iltifotsizlik munosabatlariga qarama-qarshi o'laroq Komenskiy (bu munosabat o'sha vaqtda keng tarqalgan edi) ular faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini yuqori baholadi. "Ularga, -deb yozgan edi u, - juda ajoyib vazifa topshirilgan, ana shu quyosh ostida undan yuqoriroq vazifa bo'lishi mumkin emas". Maktab ishining muvaffaqiyati aynan o'qituvchiga bog'liq, deb hisobladi u. O'qituvchi o'z ishining ustasi bo'lishi, o'qitish san'atini mukammal egallashi kerak; ancha mohir va tajribali o'qituvchilar yosh muallimlar bilan shug'ullanishi zarur, chunki o'quvchining dastlabki qadamini to'g'ri yo'lga solib yuborish juda muhimdir; o'qituvchi tashqi ko'rinishi jihatidan ham, ma'naviy qiyofasi va xulq-atvori jihatidan ham o'z o'quvchilariga namuna bo'lishi kerak, shuning uchun sof vijdonli, faol, o'z kasbini sevadigan va uni takomillashtirish to'g'risida doimo qayg'uradigan kishilargina o'qituvchi bo'lishi zarur.

6. Komenskiy har bir sinfda o'quvchilar uchun maxsus darsliklar tuzib, ularga predmet yuzasidan muayyan tizimda bayon qilingan barcha zarur materiallarni kiritish kerak, deb hisobladi. Darsliklar aniq va tushunarli tilda yozilishi, "olamning juda to'g'ri manzarasi" bo'lib xizmat qilishi zarur; ularning tashqi ko'rinishi ham bolalarni qiziqitiradigan bo'lishi kerak. Komenskiy o'z i bir qancha ajoyib o'quv kitoblari yaratdi. Uning "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" darsligi shunday kitoblardan biri edi. Bolalarni maktabda lotin tiliga o'rgatishga hamda oila va maktabda olib boriladigan dastlabki ona tili mashg'ulotlariga mo'ljallangan bu darslikda o'quv adabiyotlari tarixida birinchi bo'lib ko'p sonli rasmlar berilgan

edi: unda 150 rasm bo'lib, ularni Komenskiyning o'z i zo'r mahorat bilan peshlagan edi. Bu kitob o'z vaqtida ona tili va lotin tillari o'qitilishida tubdan o'z garish yasadi.

Darslik ko'p tillarga tarjima qilindi va bir yarim asrdan ko'proq bolalarni oila va maktabda dastlabki o'qitish uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Buyuk slavyan pedagogi Komenskiy ona tilida umumiy ta'lim berish g'oyasini ilgari surdi va asoslab berdi. Komenskiy o'sha davr uchun ilg'or ta'lim va tarbiya tajribasini umimlashtirib, oxirgi ilmiy ma'lumotlarga tayanib, birinchi marta xalq maorifini yagona tizimini ilmiy ravishda ishlab chiqdi. Bu tizim ommaning bilimga intilishini aks ettirar va demokratizm ruhi bilan sug'orilgan edi.

Adabiyotlar

- 1.Беспалко В.П.Слагаемые педагогической технологии. М.: «Педагогика» 2000 г.
- 2.Бордовская Н.В., Реан А.А. «Педагогика» Учебник для вўз ов Санкт-Петербург «Питер», 2000 г.
3. История педагогики -4.1, гл. 1-М, 1995.
4. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2-х тт. М., 1982.
5. Коменский Я.А., Локк Д., Руссо Ж.-Ж.,Песталотт И.Г. Педагогическое наследие. М., 1987

REZYUME

Ushbu maqolada Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati bo'lib bolaning rivojlanishi va tarbiyasiga bo'lgan qarashlari, o'rta asr tasavvurlaridan yoritilgan. Buyuk slavyan pedagogi Komenskiy ona tilida umumiy ta'lim berish g'oyasini ilgari surgan va asoslab bergan.. Komenskiy o'sha davr uchun ilg'or ta'lim va tarbiya tajribasini umimlashtirib, oxirgi ilmiy ma'lumotlarga tayanib, birinchi marta xalq maorifini yagona tizimini ilmiy ravishda ishlab chiqani va bu tizim ommaning bilimga intilishini aks ettirib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещена педагогическая деятельность Яна Амоса Коменского, его взгляды на развитие и воспитание детей с позиций Средневековья. Великий славянский педагог Коменский выдвинул и основал идею всеобщего образования на родном языке. Коменский обобщил передовой для того времени опыт образования и воспитания, опираясь на новейшие научные данные, и впервые единое народное образование. система, и эта система отражает стремление общественности к знаниям.

SUMMARY

In this article, the pedagogical activity of Jan Amos Comenius, his views on child development and upbringing, from the perspective of the Middle Ages are covered. The great Slavic pedagogue Comenius promoted and founded the idea of general education in the mother tongue. Comenius summarized the advanced education and upbringing experience for that time, based on the latest scientific data, and for the first time unified public education. scientifically developed system and this system reflects the public's desire for knowledge.

TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING SHAKL VA METODLARI

Jabborov M.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: pedagogik diagnostika, pedagogik muammolar, aqliy yetuklik, ijtimoiy-pedagogik e'tiborsizlik, tarbiya metodlari.

Ключевые слова: педагогический диагноз, педагогические проблемы, психическая зрелость, социально-педагогическая запущенность, методы воспитания.